

**AYOLLARNING ZIYNAT BUYUMLARIDAN FOYDALANISH
HUKMLARI (Movarounnah fiqh manbalari asosida)**

Saidov Ibrohimjon Karimovich

Mir Arab oliy madrasasi o'qituvchisi

Ro'zimuhammad To'xtasinov Nurmuhammad o'g'li,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

maqsadli tayanch doktoranti, Mir Arab oliy madrasasi o'qituvchisi

Tel: (+998 91) 1754964 (+ telegram), rozimuhammad4964@gmail.com

Yer yuzidagi barcha maxluqotni yaratgan hamda har bir maxluqotning qanday narsalarga muhtoj ekanligini biluvchi Alloh taolo ularning ehtiyojiga kerakli narsalarni ham yaratib qo'ygandir.

Alloh yaratgan narsalarning ichida eng mukarrami inson bo'lib, u ikki jinsdan iborat: erkak va ayol. Ikkisi bir biriga muhtoj, bir-birisiz hayot kechirishi qiyin. Ayol kishi erkaklardan farqli o'laroq nozik xilqat, go'zal va go'zallikni sevadigan qilib yaratilgan. Alloh taolo ayollarning tabiati, didini inobatga olgan holda ularning bezanishi, tashqi ko'rinishiga oro berishi uchun kerakli imkoniyatlarni yaratib qo'ygan. Shuning uchun ham ayollar Alloh taolo tomonidan yaratilgan narsa-buyumlar bilan bezanish, yasanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi.

Ushbu omillarni e'tiborga olib Islom shariatida ham ayollarning bezanishiga ruxsat berilgan.

Alloh taolo o'z bandalariga ularning tashqi ko'rinishlarini chiroyli qilib turadigan ne'matlarni berib qo'ygani haqida bunday marhamat qiladi:

“Ey odam bolalari, batahqiq sizlarga avratingizni to'sadigan libos va ziynat libosini nozil qildik. Taqvo libosi, ana o'sha yaxshidir. Ana o'shalar Allohning oyat belgilaridandir”. [1:153]

Yana boshqa bir oyatda esa, Alloh o'zi halol qilib qo'ygan ziynatlarni harom deb aytganlarni inkor qilib bunday deydi:

«Sen: “Alloh o'z bandalariga chiqargan ziynatlarni va pokiza ziynatlarni kim harom qildi?!” deb ayt. Ular hayoti dunyoda iymon keltirganlarga, qiyomat kunida esa, faqat o'zlariga xosdir” deb ayt. Biladigan qavmlar uchun oyatlarni mana shunday mufassal bayon qilamiz». [1:154]

Bu yerda ham ziynat buyumlari va pokiza narsalar mo'minlar foydalanishi uchun berilgan ne'mat ekanini eslatib o'tilmoqda. Oyatda mo'minlar so'zi zikr qilingan bo'lsada, uning tarkibiga mo'minalar ham kiradi. Chunki qaysiki oyatda mo'minlar so'zi zikr qilingan bo'lsa, undan mo'minlar ham, mo'minalar ham e'tiborga olingani mufassirlar tomonidan bayon qilingan. [2:422]

Zero, Payg'ambarimiz (s.a.v) ning sunnatlari ham musulmonlarni xoh u erkak bo'lsin, xoh u ayol bo'lsin tashqi ko'rinishlarini go'zal, hushsurat qilib yurishlariga targ'ib qilganlar. Ana shu targ'ibotlaridan biri u zotning quyidagi so'zlarida o'z ifodasini topadi:

“Kimning sochi bo'lsa, uni ikrom qilsin (parvarish qilsin)”. [3:4\76]

Ushbu hadisda Nabiy (s.a.v) sochni parvarish qilishga buyurmoqdalar. Zero soch insonning tashqi ko'rinishini go'zallashtiradigan a'zodir. Bu so'z ham erkaku ayolga tegishlidir. Chunki hadisning arab tilidagi matnida kelgan “من” [man] so'zi muzakkar va muannasni ya'ni erkak va ayolni o'z ichiga oladigan umum so'zlardandir. [4:1\209]

“Albatta Alloh go'zaldir go'zallikni yaxshi ko'radi”. [5:2\89]

Bu hadisda ham u zot (s.a.v) Alloh taolo go'zallikni yaxshi ko'rishini ta'kidlamodalar. Bu esa, muslim va musulmalarni tashqi ko'rinishlarini chiroyli qilishga e'tibor qaratishlariga bo'lgan undovdir.

Demak, shariatda ayollar bezanishi, ziynatlanishi joiz va marg'ub ish ekan. Shu o'rinda “Ular qanday bezanadi va kimlar uchun bezanadi va bezanishlari kerak?” degan o'rinli savol tug'iladi. Quyida shu savollarning javoblariga birma-bir to'xtalib o'tiladi.

Ayollar kimlar uchun ziynatlanishi mumkin?

Alloh taolo inson zoti uchun bu dunyoda yaratib qo'ygan baxt-saodat sabablaridan biri uning tashqi ko'rinishini ko'rkam qiladigan pokiza zeb-ziynat buyumlaridir. Ayol kishi chiroyli bo'lishni yaxshi ko'radi. Eri – jufti halolini o'ziga jalb qilishni xoxlaydi. Shuning uchun har doim unga go'zal qiyofada ko'rinishga harakat qiladi. Ana shu sabablarni inobatga olgan holda islom shariatida ayollar o'z erlari uchun ziynatlanishi va yasanishiga ruxsat berilgandir. Kerak bo'lsa er-xotinning o'rtalarida muhabbat, ulfat paydo bo'lishi yoki uning yanada ziyoda bo'lishi uchun ayollar o'z erlari uchun ziynatlanishini mustahab ish deya hukm qilgan. Shunindek ayollar o'z erlaridan tashqari quyidagi oyatda zikri kelgan shaxslarga ziynatlarini ko'rsatishi mumkindir:

“Ular zeb-ziynatlarini erlari yo otalari, yo erlarining otalari, yo o'g'illari, yo erlarining o'g'illari, yo o'zlarining og'a-inilari, yo og'a-inilarining o'g'illari, yo opa-singillarining o'g'illari, yo o'zlari (kabi) ayollar, yo qo'l ostilaridagi (cho'ri)lar, yo (ayollardan) behojat bo'lgan (ya'ni, juda keksayib qolgan yoki aqlsiz-devona) erkak xizmatkor qullar, ayollarning avratlaridan xabardor bo'lmagan go'daklardan boshqalarga ko'rsatmasinlar!”. [1:353]

Burhoniddin Marg'inoniy (r.a.) o'zining “Hidoya” asarida erlardan boshqalarga ziynatlarini ko'rsatish ruxsat va muboh amallardan ekanini aytib o'tadi. Ammo bu ruxsatning sababi sifatida mahramlarning oralarida o'zaro shahvoniy maqsadda qarash yo'qligi, ular odatda bir-birlari bilan bir uyda jam bo'lishlari, ayollar esa uyda yengilroq kiyinib yurishlarini keltirgan. [6:4\104]

Shuning uchun ham ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarda nomahramlarning bir-birlariga bo'lgan munosabatiga qaraganda yengilroq yechim qilib berish kerak bo'ladi. Bu yengillik esa nomahramlardan farqli o'laroq taqinchoq taqish mumkin bo'lgan a'zolar – quloq, bo'yin, bilaklarni va o'sha a'zoga taqiladigan taqinchoqlarni ko'rsatish mumkinligi bilan belgilanadi. Chunki ayollar o'z mahramlariga ham xuddi nomahramlar kabi yuz va kaftlaridan boshqa joylarini ko'rsatmasinlar deyilsa, ularni mashaqqatli ishga buyurilgan bo'ladi. Demak bu ruxsat mashaqqatni bartaraf qilish, yengillik yaratish maqsadida ekan. Shuning bois ayollar erlari uchun ziynatlanishi bilan mahramlari uchun bezanishining farqi bor. Erlari uchun ziynatlanish mustahab amal bo'lsa, mahramlarga ziynatlarini ko'rsatish esa joiz, muboh amaldir.

Ayollar nomahramlarga qanday ziynatlarini ko'rsatishlarini mumkin?

Bu haqida yuqoridagi oyatning avvaliga nazar solish kerak bo'ladi:

“...Va ular o'z ziynatlarini oshkor qilmasinlar. Magar zohir bo'lganlari bo'lsa, mayli...”.[1:353]

Ushbu oyatdan ma'lum bo'lyaptiki ayollar begona erkaklarga o'z ziynatlarini ko'rsatmasliklari kerak. Biroq bu birorta joylarini ko'rsatishlari mumkin emas degani emas ekan. Zero oyatda uning mustasno holati bor ekani eslatib o'tildi. U ham bo'lsa zohir bo'lgan ziynatlar ekan. Ya'ni ayollar begona erkaklarga zohir bo'lgan ziynatlarini ko'rsatishlari mumkindir.

Tobeinlardan Ato ibn Abu Raboh (27/647 – 114/732), Makhul (vaf. 112 h) (roziyallohu anhum)lar, mufassirlardan Ibn Kasir (701-774 h), Qurtubiy (vaf. 671), Jassos Roziy (vaf. 370 h) (r.a.)lar, hanafiy va shofeyiy mazhabi sohiblari zohir ziynat bu yuz va ikki kaft deganlar. [7:5\121]

Ular bu so'zlariga dalil sifatida Ibn Abbos (r.a.)ning: «Oyatdagi “zohir bo'lganlari” so'zidan yuz va ikki kaft iroda qilingan», degan gaplarini keltirishadi.

Shunga ko'ra uzuk, bilaguzuk, sirg'a va boshqa taqinchoqlar ko'rsatish mumkin bo'lmagan ziynatlardir. Chunki faqihlar zohir ziynat ayol kishining taqinchog'i emas, balki, yuzi va ikki kafti ekanini aytmoqdalar. Aslida ayolning yuzi yoki kafti ham ziynatdir. Shuning uchun ham bu a'zolar ko'zi tushgan odamni o'ziga jalb qiladi, diqqatni tortadi. Ammo bu a'zolarini berkitish, ko'rsatmaslikda ayollarga mashaqqat bor. Ayni shu mashaqqatni oldini olish uchun yuz va kaftlarini ochib yurishga ruxsat berilgan. Ammo fitna bo'ladigan, qaragan erkaklarni shahvoniy hirsini uyg'otib yuborishi mumkin bo'lgan o'rinlarda kerak bo'lsa yuz va kaftlarini ham ko'rsatmagani, o'zini ehtiyot qilgani ma'qul bo'ladi. Bularga ko'zi tushganda fitnalanib qolishdan xavf qilgan erkak ham ularga qaramasligi lozim ekani “Hidoya” kitobida zikr qilib o'tilgan. [6:4\100] Lekin yuqorida zikri kelgan taqinchoqlar zohir ziynat ichiga kirmagani uchun ular bilan ziynatlangan holda begonalarga ko'rinishlari mumkin emas. Ya'ni yuz va kaftlarini ko'rsatishlari mumkin degani, ana shu a'zolaridagi

taqinchoqlarini ham ko'rsatishlari mumkin degani emas. Bu kabi ta'qiqqlarni ayollar o'z huquqlarini cheklanishi deb tushunmasliklari kerak. Zero, bu cheklovlar yaxshilab o'ylab ko'rilsa, ularning huquqlarini himoya qiladi.

Ayollar ziynatlanishi mumkin bo'lgan taqinchoqlar qaysi?

Yuqoridagilardan ayollarning ziynatlanishi mumkin ekani xulosa qilindi. Ayollar ziynatlanishi mumkin bo'lgan yo'llar, uslublar, ziynatlanish vositalari ham juda ko'p va xilma-xildir. Quyida ziynat vositalaridan biri ayollar foydalanishi mumkin bo'lgan taqinchoqlargat o'xtalib o'tiladi. Alloh taolo ham qimmatbaho toshlarni ziynat deya nomlagan va ulardan foydalanish muboh ekanini aytgan:

«Sen: “Alloh o'z bandalariga (yer ostidan) chiqargan ziynatlarni kim harom qildi?!” deb ayt». [1:154]

Yana bir oyatda esa: **“Daryo, dengiz ikkisi teng bo'la olmas. Bunisi totli chanqoq bosar, ichish osondir. Bunisi esa, sho'r taxirdir. Siz har biridan toza go'sht yeysiz. Va taqinchoq chiqarib taqursiz...”,** deya marhamat qilgan. [1:436]

Qurtubiyning tafsir kitobida dengizdan chiqariladigan qimmatbaho toshlar marvarid va marjon ekani aytilgan. [8:10\86]

Ayol kishi taqinchoq bilan bezanishi quyidagi tartibda amalga oshirilishi kerak:

1. Taqinchoqlardan foydalanishdagi eng asosiy qoida va ko'rsatmalardan bittasi isrofgarchilikka, ortiqcha dabdabaga yo'l qo'ymaslikdir. Zero musulmon kishi har bir ishda isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligi lozimdir. Bu borada Nabiy (s.a.v) bunday ta'kidlaganlar:

“Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar va kiyinglar. Isrof qilmasdan va kibr qilmasdan”. [9:3\80]

2. Hanafiy mazhabi aksar fuqaholarning nazdida ayollar tillo, kumush, yoqut, zabarjad, javohir kabi qimmatbaho toshlardan tayyorlangan taqinchoqlardan foydalanishlari mumkindir. [Muxtasarul viqoya fi masailil hidoya. – B. 130] Nabiy (s.a.v)dan rivoyat qilingan hadisda bu borada bunday deyilgan:

Abu Muso roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rosululloh sollallohu alayhu vassallam: **“Ummatimning ayollariga tillo va ipak halol qilindi. Erkaklariga esa, haromdir”**, dedilar». [10:3\132]

Bu hadisning ko'p turuq (yo'l)lari bo'lib, ayrim ulamolar bu hadisni mutavotir ham deyishgan. [11:298]

Zumrad, zabarjad, yoqut, javohir kabi qimmatbaho toshlar ham tillo va kumushning maqomida bo'lib, ayol kishi ulardan ham ziynat maqsadida foydalanishi mumkin bo'ladi.

3. Manbalarda ayol kishi temir, mis, alyumin, qo'rg'oshin, plastmassa kabi arzon metallardan yasalgan taqinchoqlardan foydalanish mumkin emasligi ta'kidlangan. Bunga dalil sifatida Nabiy (s.a.v)ning quyidagi hadislarini keltiriladi:

Burayda ibn Hasib roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: **Bir kishi Nabi (s.a.v)ning huzurlariga keldi. Uning qo'lida misdan yasalgan uzuk bor edi. U zot: "Men sendan sanamlarning hidini sezyapmanmi?", dedilar. Shunda haligi kishi uzugini tashlab yubordi va keyingi safar tillo uzuk taqib keldi. Nabi (s.a.v): "Men senda do'zax ahlining taqinchog'ini ko'ryapmanmi?", dedilar. U kishi bu uzugini ham tashlab yuborib: "Yo Rosullloh, unda nimadan yasalgan uzukni taqay", deb so'radi. "Kumushdan, vazni bir misqolga yetmasin", deb javob berdilar. [10:3/90]**

Hanafiy mazhabida ushbu hadisda xitob erkaklarga qilingan bo'lsada keltirilgan sabab umumiyli e'tiborga olinib, bunday turdagi taqinchoqlarni taqish ayollarga ham mumkin emas deyiladi. [12:5\335]

4. Kitoblarda taqinchoqning qaysi metallan yasalgani e'tiborigina bo'lib qolmay, uning qanday shaklda yasalganiga qarab ham hukm chiqariladi. Fiqh kitoblarida taqiladigan taqinchoqlarga jonli narsalarning surati tushirilgan bo'lmasligi yoki taqinchoqlar jonli narsalarning suratida yasalgan bo'lmasligi aytilgan. [Hoshiyatu ibn Obidin. 1\647] Masalan qushlar, yirtqich hayvonlarning shaklida yasalgan yoki ularning surati naqsh qilib solingan taqinchoqlar ham bor bo'lib, ular foydalanish mumkin bo'lgan metallan yasalgan bo'lsa ham, taqish halol bo'lmaydi deyiladi. Buning sababi hadislarda jonli narsalarning suratini chizish, ularning haykalini yasashdan qaytarilganligidir.

Ibn Abbos (r.a.)dan rivoyat qilinadi: **«Muhammad (s.a.v)dan: "Kim bu dunyoda bir surat chizsa, oxiratda unga jon kirgizishga buyuriladi. Vaholanki o'sha vaqtda u jon kiritishga qodir bo'lmaydi", deganlarini eshitdim».** [13:10\93]

Shunga ko'ra ayol kishi jonli narsalarning surati tushirilgan yoki uning shaklida yasalgan taqinchoqlarni ham taqmagani ma'qul bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ayollarga ziynatlanishlari uchun keng imkoniyatlar berilgan bo'lib, bunday imkoniyatlar erkaklarda yo'qdir. Chunki erkaklarning tabiati, xilqati bezanish, yasanishga moyil emas. Undan tashqari erkaklarning ayollar kabi yasanib, taqinchoqlar taqib olishida ularning salobati, viqorlari yo'qolishi bordir. Ayollar bezanishga bo'lgan ehtiyojlarini halol qilingan yo'llar bilan, me'yordan oshmagan holda qondirishlari lozim va ziynatlarini shariatda ruxsat etilgan shaxslargagina ko'rsatishlari kerak bo'ladi. Yuqoridagi ko'rsatmalarga erkaklar ham ayollar ham birdek rioya qilishlari jamiyat tinchligi, oilalar mustahkamligiga sabab bo'ladi, inshaolloh.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasini. – T.: "Hilol", 2017. – B. 153

2. Jaloliddin Mahalliy, Jaloliddin Suyutiy. Tafsiri Jalolayn. – Ar-Riyod: “Dorus salom”, 2002. – B. 153
3. Sulaymon ibn Ash’as. Sunani Abu Dovud. – Bayrut: “Dorul fikr”, 2009. 4\76
4. Mulla Jiyvon Siddiqiy. Nurul anvor. Toshkent: “Movarounnahr, 2017. 1\209. 1\209
5. Yahyo ibn Sharaf Navaviy. Sahihi Muslim sharhi. – Bayrut: “Dorul fikr”, 2011. 2\89
6. Burxoniddin Marg‘inoniy. Hidoya sharhi bidoyatul Mubtadiy. – Pokiston, Karachi: “Maktabatul bushro”, 2020. 4\104.
7. Alouddin Abu Bakr ibn Mas’ud Kosoniy. Badoeus sanoe’ fi tartibish sharoe’. – Bayrut: “Dorul kutubul ilmiy”, 2003. 5\121
8. Muhammad ibn Ahmad Qurtubiy. Al-Jome liahkamil Qur’on (Tafsiri Qurtubiy). – Qohira: “Dorul kutubil arabiyya”, 2006. 10\86
9. Jaloliddin Suyutiy. Durrul Mansur fit Tafsiri bil ma’sur. – Bayrut: “Dorul ma’rifa”, 2010. 3\80
10. Muhammad ibn Abdurahmon. Sunani Termiziy sharhi (Tuhfatul Ahvaziy sharhi). – Bayrut: “Dorul kutubil ilmiyya”, 2008. 3\132
11. Muhammad ibn Ja’far kattoniy. Nazmul mutanosir minal hadisil mutavotir. “Dorul kutubis salafiyya”, 2009. – B. 298
12. Shayx Nizom va Hind ulamolar jamoasi. Fatavoi hindiyya. – Bayrut: “Dorul fikr”, 2009. 5\335
13. Ahmad ibn Ali ibn Hajar Asqaloniy. Fathul boriy sharhi Sahihi Buxoriy. – Bayrut: “Dorul fikr”, 2001. 10\93